



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 02 | pp. 12-17 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

HISOB SIYOSATI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI



A.Z.Avlokulov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d.

Annotatsiya. Mazkur maqolada auditning xalqaro standartlari talablari asosida hisob siyosati auditini tashkil etish va o'tkazish yo'nalishlari bayon etilgan. Shuningdek, hisob siyosatida aks ettirilgan moliyaviy hisobot moddalarini tekshirish bo'yicha qo'llaniladigan audit usullari tarkibiga aniqlik kiritilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida hisob siyosati auditini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: hisob siyosati, moliyaviy hisobot, audit, turdosh xizmatlar, auditning xalqaro standartlari, auditni rejalashtirish.

НАПРАВЛЕНИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕТНОЙ ПОЛИТИКИ АУДИТА

А.З.Авлокулов

Д.э.н., профессор Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. В данной статье описаны направления организации и проведения аудита учетной политики на основе требований международных стандартов аудита. Также уточнено содержание методов аудита, используемых для проверки статей финансовой отчетности, отраженных в учетной политике. В результате проведенного исследования были разработаны рекомендации по совершенствованию аудита учетной политики.

Ключевые слова: учетная политика, финансовая отчетность, аудит, сопутствующие услуги, международные стандарты аудита, планирование аудита.

DIRECTIONS FOR IMPROVING AUDIT ACCOUNTING POLICIES

A.Z.Avlokulov

Doctor of Economics, Professor,
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article describes the directions of organizing and conducting an audit of accounting policies based on the requirements of international auditing standards.

The content of audit methods used to verify financial statement items reflected in the accounting policies has also been clarified. As a result of the study, recommendations were developed to improve the audit of accounting policies.

Key words: accounting policies, financial statement, audit, related services, international standards on auditing, audit planning.

1. KIRISH

Har qanday auditorlik tekshiruvining, shu jumladan, hisob siyosati auditining asosiy maqsadi xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatidan manfaatdor bo'lgan foydalanuvchilarga mazkur sub'ekt tomonidan tuzilgan moliyaviy hisobotning ishonchliligi va haqqoniyligini tasdiqlash iborat. Umuman olganda moliyaviy hisobot auditini o'tkazish hisob siyosati va unga daxldor bo'lgan elementlarni tekshirishdan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonida auditorlar tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotida jiddiy buzilishlar mavjud emasligiga baho berishi va mazkur moliyaviy hisobot mamlakatning amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari talablari asosida shakllantirilganligiga ishonch hosil qilishi zarur. Auditorlik tekshiruvi yakunida esa mazkur ishonch auditorlik xulosasini shakllantirishda asos sifatida qabul qilinishi kerak.

2. ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi olimlarning asarlarida hisob siyosatining mohiyati va ahamiyatiga keng e'tibor qaratilgan. Xususan, estoniyalik iqtisodchi olimlar ta'kidlashicha, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisob siyosati qoidalarini ishlab chiqishi kerak, ular buxgalteriya hisobining mazmunini tavsiflash bilan birga buxgalteriya hisobi rejasini tuzishi, xo'jalik operatsiyalarini hujjatlashtirishi va qayd etishi, dastlabki hujjatlarning aylanishi hamda saqlanishini tartibga solishi lozim" [1].

S.Alayemi hisob siyosati borasida tadqiqotlar olib borib, "hisob siyosati moliyaviy hisobotlarda keltirilgan ma'lumotlarni to'g'ri tushunish uchun juda muhimdir. Korxonalar moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda qo'llagan hisob siyosati qoidalarini aniq ko'rsatishi kerak", [2] degan xulosaga kelgan.

Turkiyalik iqtisodchi olimlar fikricha, "hisob siyosati moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishda korxona tomonidan qo'llaniladigan prinsiplar, asoslar, qoidalar va amaliyotlar yig'indisi hisoblanadi, ular aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlarni baholash hamda hisobga olish bilan bog'liq usullardan iborat" [3].

PhD Z.Zufarova aynan hisob siyosati borasida tadqiqotlar olib borib, mazkur hujjatning mazmun-mohiyatini quyidagicha yoritgan: "xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan tashqi foydalanuvchilar uchun taqdim etiladigan moliyaviy hisobot axborotlarining sifati mazkur sub'ektlar tomonidan ishlab chiqilgan hisob siyosatiga bevosita bog'liqdir. Hisob siyosati aktivlar, xususiy kapital, majburiyatlar, daromad va xarajatlarning moliyaviy hisobotda to'g'ri va normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida shakllanishini belgilab beruvchi hujjat hisoblanadi" [4].

PhD B.N.Sayfutdinov esa o'z tadqiqotida "hisob siyosati har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisobot davrida buxgalteriya hisobi ishlarini yuritishda

qo'llaniladigan qoidalar, usullar va talablar majmuasini o'z ichiga mujassam etadi. Hisob siyosatining oqilona va izchil tuzilishi moliyaviy hisobot axborotlarining ishonchliligi va shaffofliligi oshishiga xizmat qiladi” [5], degan xulosaga kelgan.

Kuban davlat agrar universiteti professor-o'qituvchilari A.A.Adamenko, S.X.Berlina va X.Sh. Xuako hisob siyosati borasida tadqiqotlar olib borib, quyidagi xulosalarga kelishgan: “hisob siyosati kompaniyani boshqarish vositasidir” [6].

Biroq yuqorida keltirib o'tilgan tadqiqotlarda hisob siyosatining mazmuni yoritilgan bo'lsada, uning auditini o'tkazish masalalariga keng e'tibor qaratilmagan.

3. TAHLIL VA NATIJALAR

Hisob siyosati auditning dastlabki va eng katta hajmli ob'ektlaridan biri bo'lganligi sababli auditorlik tekshiruvlarida ko'plab audit amallarini qo'llash zarur. Tekshiruv jarayonida auditor tomonidan qo'llaniladigan usullar va amallar tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati bilan kelishilishi shart. Mazkur usullar va amallarni qo'llash hisob siyosatining izchilligi va qonuniyligiga haqqoniy baho berishda xizmat qilishi lozim. Hisob siyosati auditida xalqaro standartlarda belgilangan usullar va amallarning qo'llanilishi xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatni natijalarini odilona baholash imkoniyatini yaratadi va audit ishi sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda auditorlik tashkiloti tomonidan majburiy auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishdan tashqari turdosh xizmatlar ham ko'rsatilishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda turdosh xizmatlardan olinadigan daromadlar auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishdan olinadigan daromadlardan ancha ko'p bo'lib, ularning turlari ham keyingi paytlarda ko'payib bormoqda.

Turdosh xizmatlar tarkibida auditorlik tashkiloti tomonidan mijoz ma'lumotlarini kompilyatsiya qilish xizmatlari ham oshib bormoqda. Xorijiy davlatlar amaliyotida aynan hisob siyosatini tuzish borasida kompilyatsiya xizmatlari yuqori salmoqni tashkil etmoqda. Auditorlik tashkiloti tomonidan hisob siyosati bo'yicha kompilyatsiya xizmatlarini ko'rsatish murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanib, sub'ekt faoliyatiga doir barcha moliyaviy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, alohida mezonlar bo'yicha guruhlarga ajratish va ularni muayayn tizim asosida umumlashtirishni talab etadi. Zarur hollarda auditor tomonidan ushbu moliyaviy ma'lumotlarga ham o'zgartirish qilinishi mumkin.

Hisob siyosatini tuzish bo'yicha kompilyatsiya xizmatlarini ko'rsatishda auditor tomonidan chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalardan foydalanish talab etiladi. Chunki har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatidan kelib chiqqan holda turlicha xususiyatlarga ega bo'ladi. Mazkur xususiyatlarni auditor bilishi va ularning hisob siyosatiga ta'sirini baholay olishi zarur.

Auditning xalqaro standartlari talablariga binoan kompilyatsiya maqsadida to'plangan ma'lumotlar auditorlik dalili vazifasini bajara olmaydi. Biroq, hisob siyosati bo'yicha auditor tomonidan kompilyatsiyaga oid ko'rsatilgan xizmatlar xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, buxgalteriya hisobi ishlarini tizimli tashkil etish va moliyaviy hisobotni ishonchli shakllantirishga xizmat qiladi.

Hisob siyosati auditni bo'yicha kompilyatsiya xizmatlari dalil hisoblanmasada,

auditor qonunda va auditning xalqaro standartlarida belgilangan mustaqillik, halollik, maxfiylik, xolislik va professional kompetentlik prinsiplaridan chetga chiqmasligi kerak.

Hisob siyosati bo'yicha kompilyatsiya xizmatlarini ko'rsatishda xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan to'plangan barcha ma'lumotlar tahlil qilinishi, holatlarga xolis baho berilishi va uning natijalari turdosh xizmatlarga oid tuziladigan audit natijalarida o'z aksini topishi kerak.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlardan ko'riniib turibdiki, hisob siyosatini tuzish yoki uning izchilligi va qonuniyligi bo'yicha auditorlik tekshiruvini o'tkazish murakkab jarayon hisoblanadi. Mazkur holatlar esa hisob siyosati auditni bo'yicha mavjud bo'lgan metodologik yondashuvlarni ko'rib chiqish taqozo etadi.

Hisob siyosati auditini o'tkazishda mavjud metodologik yondashuvlarni ko'rib chiqishda ko'plab jihatlarga e'tibor qaratish lozim. Avvalo, hisob siyosati auditni majburiy auditorlik tekshiruvining ham, turdosh xizmatlarning ham ob'ekti bo'lishi mumkin. Har ikkala holatda ham auditorlik guruhining rahbari xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati bilan ko'rsatiladigan xizmat bo'yicha audit amallarini qo'llash masalasini kelishib olishi zarur hisoblanadi.

Hisob siyosati majburiy auditorlik tekshiruvining ob'ekti sifatida moliyaviy hisobot ishonchliligi bo'yicha tuziladigan auditorlik hisobotining muayayn tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Bundan tashqari «Maxsus maqsadda tuzilgan moliyaviy hisobot auditining xususiyatlari» nomli 800-sون AXS talablari asosida hisob siyosati auditini o'tkazish alohida tekshiruv ob'ekti sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Shuningdek, "Moliyaviy axborotlarning kompilyatsiyasi bo'yicha kelishuv" nomli 4410-sон AXSga binoan hisob siyosatini tuzish va uning qonuniyligini tekshirish turdosh xizmat sifatida qaralishi mumkin.

Hisob siyosati auditini tashkil etish va o'tkazish muayayn tashkiliy va metodologik masalalarni hal etishni talab etadi. Xususan, hisob siyosati auditidagi tashkiliy jihatlarga tekshiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektda korporativ boshqaruvga mas'ul bo'lgan shaxslar bilan audit o'tkazish ko'lami va chegaralarini, tekshiruvga sarflanadigan vaqt va mehnat xarajatlari hamda tekshiruv o'tkazish uchun boshqa shart-sharoitlarni kelishish masalalari kiradi. Mazkur tashkiliy jihatlarga jiddiy e'tibor qaratish nafaqat auditorlik tashkiloti, balki tekshirilayotgan sub'ekt uchun ham zarur hisoblanadi. Chunki hisob siyosati bo'yicha auditorlik tekshiruvlari sifatli o'tkazilsa va auditorlik xulosalari haqqoniy tuzilsa, mazkur sub'ekt tomonidan tuzilgan moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligi oshib, ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun muhim iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyati yanada oshadi.

Majburiy auditorlik tekshiruvlarida ham, turdosh xizmatlarni ko'rsatish jarayonida ham hisob siyosati auditorlik tekshiruvining asosiy ob'ekti bo'lishi kerak. Chunki hisob siyosatida keltirilgan har bir talab yoki me'yor moliyaviy hisobot moddalariga bevesita ta'sir ko'rsatadi. Agarda hisob siyosati izchilligi va qonuniyligi ta'minlanmasa, uning samaradorligi pasayadi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining noto'g'ri shakllanishiga olib keladi. Shu boisdan ham auditorlik tekshiruvini rejalashtirish bosqichida audit umumiyligi va dasturini tuzishda hisob siyosatiga oid barcha jihatlar moliyaviy hisobot elementlari kesimida muayayn ketma-ketlikda o'z aksini topishi shart.

Hisob siyosati auditida xususiy usullardan keng foydalaniladi. Xususiy usullar tarkibiga hujjatli tekshiruv, tahliliy amallar, og'zaki so'rov, skanerlash, tashqi tasdiqnomalar, inventarizatsiya, qayta tekshirish va qayta hisoblash usullarini kiritishimiz mumkin. Fikrimizcha, hisob siyosatida aks ettirilgan moliyaviy hisobot moddalari bo'yicha quyidagi xususiy usullarni qo'llash maqsadga muvofiqdir:

 asosiy vositalar, kapital qo'yilmalar, tovar-moddiy zaxiralar, pul mablag'lari va majburiyatlar bo'yicha hujjatli tekshiruv, inventarizatsiya va tashqi tasdiqnomalar usullari

 xususiy kapital elementlari bo'yicha qayta tekshiruv va qayta hisoblash usullari

 daromad va xarajatlar hamda moliyaviy natijalar bo'yicha hujjatli tekshiruv, qayta hisoblash va tashqi tasdiqnomalar usullari

 tekinga olingan mulk, hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillar foydasi, favqulodda foyda va zararlar, shuningdek moliyaviy hisobotda unchalik ahamiyatga ega bo'limgan boshqa elementlar bo'yicha skanerlash usuli

 moliyaviy hisobotning barcha elementlari bo'yicha tahliliy amallar usuli

1-rasm. Hisob siyosatida aks ettirilgan moliyaviy hisobot moddalarini tekshirish bo'yicha qo'llaniladigan audit usullari¹

Hisob siyosatini tuzishda moliyaviy, boshqaruv va soliq hisobining barcha jihatlarini qamrab olgan holda optimal yechimni tanlash kerak bo'ladi. Xususan moliyaviy hisob nuqtai nazaridan buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari talablarini inobatga olish lozim bo'lsa, boshqaruv hisobi nuqtai nazaridan mazkur hisob siyosati oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini yaratishi zarur. Shuningdek hisob siyosati buxgalteriya hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirish, hujjatlar aylanish grafigini to'g'ri tashkil etish, inventarizatsiyani sifatli o'tkazish, mahsulot tannarxini to'g'ri kalkulyatsiya qilish, aktivlar va majburiyatlar qiymatini to'g'ri baholash imkoniyatini yaratishi kerak.

4. XULOSA

Yuqorida sanab o'tilgan usullarni qo'llash asosida hisob siyosati auditini o'tkazishning quyidagi xususiyatlari mavjud degan fikrga kelindi:

¹ Muallif ishlanmasi

hisob siyosati tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektda buxgalteriya hisobini tashkil etish va moliyaviy hisobotni tuzish uchun asosiy hujjat ekanligi bois mazkur hujjatni har qanday auditorlik tekshiruvining umumiy rejasi va dasturining dastlabki elementi sifatida qarash zarur;

hisob siyosati auditini o'tkazishda auditor nafaqat uning mamlakatda amal qilib turgan normativ-huquqiy hujjatlar talablari, balki xo'jalik yurituvchi sub'ekt tarmoq xususiyatlardan kelib chiqqan holda ichki idoraviy hujjatlar talablarini ham inobatga olishi shart;

hisob siyosati auditida tarmoq xususiyatlari va maxsus rejim (erkin iqtisodiy zona) sharoitlari talablari ham auditorlik tashkiloti tomonidan baholanishi kerak;

auditorlik tekshiruvlarida iqtisodiy faoliyat turlari ham atroflicha ko'rib chiqilishi shart. Odatda, sub'ekt faoliyati operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatga bo'linadi. Hisob siyosati auditida ham moliyaviy hisobot elementlari bo'yicha belgilangan talablarning mazkur faoliyat turlariga ta'siri ham ko'rib chiqilishi lozim.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, hisob siyosati auditida turli metodologik yondashuvlar mavjud bo'lib, auditorlik tekshiruvlarida ulardan qaysi birining va qaysi vaziyatda qo'llanilishi auditorning bilimi, malakasi va professional mushohadasiga bevosita bog'liqdir. Mazkur jihatlar hisob siyosati auditini tizimli va to'g'ri tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ave Nukka, Malle Kasearu. Accounting policies and procedures in the preparation of the annual report. //5th International Conference on Accounting, Auditing, and Taxation (ICAAT 2016).
2. Sunday Alayemi. Choice of Accounting Policy: Effects on Analysis and Interpretation of Financial Statements. //American Journal of Economics, Finance and Management. Volume 1, No. 3, 2015. Pp. 190-194.
3. Oğuzhan BAHADIR, Büke TOLGA. Accounting policy options under IFRS: evidence from Turkey. //Accounting and Management Information Systems. Volume 12, No. 3, 2013. Pp. 388–404.
4. Zufarova Z.R. Hisob siyosati auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: 2023 y. 56 b.
5. Sayfutdinov B.N. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotni tuzish va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: 2023 y. 56 b.
6. Адаменко А.А., Берлина С.Х., Хуако Х.ИІ. Совершенствование учетной политики организации. //Вестник Академии знаний №14(3) 2015. Стр. 4-8.

